

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Фофуров Низомжон Октябрович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Сабиров Алишер Сабирович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам (США)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Муйдинова Моҳира Муқимжоновна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ходжаев Собир Джумаевич
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Акрамов Хусан Фуркатович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харасович
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ.....	5
2. Sabirova Umida SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
3. Алексеева Виктория КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	21
4. Kayumov Kaxramon KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHLTLARI.....	30
5. Alikariyeva A'loxon TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	36
6. Mannanova Nilufar DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOIYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA.....	44
7. Mo'minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHLTLARI.....	51
8. Jiyanmurotova Gulnoz YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR.....	58
9. Сеитов Мансур МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.....	66
10. Узакова Зарина СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.....	74
11. Ziyayeva Xolida AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI.....	80
12. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIY OMILLARI.....	88
13. Shokirov Shaxrizod HUQUQBULARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.....	93

14. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI.....	102
15. Akramov Xasan YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	108
16. Kalanova Sabohat JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA.....	117
17. Axrorov Zohidjon O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.....	126
18. Xujanov Zafar KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI.....	132
19. Turanazarov Umid KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI.....	138
20. Kaxarova Nilufar SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....	145
21. Хакимова Анора ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	154
22. A‘zamxonov Saidabzalxon TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	163
23. Ro‘zimatov Elbek VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI.....	170
24. Masharipov Baxtiyar SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	177
25. Muzaffarov San‘atbek VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI.....	185
26. Yo‘ldashev Shoxrux YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA.....	190

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Imomova Nozimaxon,


Farg‘ona davlat universiteti

“Sotsiologiya” kafedrası dotsenti

sotsiologiya yo‘nalishi bo‘yicha f.f.d.(PhD)

e-mail: imomovanozima4@gmail.com

MEHNAT MIGRATSIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOY OMILLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800138>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mamlakatning migratsion harakatlanishiga ko‘ra, halqaro mehnat migratsiyasi jarayoni davlatlarning hamkorligi va migrantlarning shaxsiy tashabbusi asosida amalga oshirilishi keng yoritilgan. Mehnat migratsiyasi jarayonining jadallashishi natijasida O‘zbekiston ham halqaro mehnat migratsiyasi jarayoni hamda xalqaro mehnat bozorining faol ishtirokchisi sifatida o‘rin egallashi ko‘rsatilib, mehnat migratsiyasi harakatlanishi muayyan vaqtlarda kuchayib-pasayish tendensiyasi ilmiy izohlangan. Shuningdek, mamlakatda migratsion harakatlarning joriy holati va o‘zgarish tendensiyalari ilmiy tahlil qilinib, migratsiya jarayonini har tomonlama nazorat qilish bilan birga huquqiy tartibga solish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shu o‘rinda, maqolada muallif tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar va rasmiy ma‘lumotlar orqali qiyosiy tahlil qilish natijasida olingan xulosalar taqdim qilingan.

Kalit so‘zlar: mehnat migratsiyasi, tendensiya, halqaro mehnat bozori, mamlakat, ish haqqi, turmush daraja, ehtiyoj.

Имомова Нозимахон,

Ферганский государственный университет

доцент кафедры социологии

доктор философии социологии (PhD)

e-mail: imomovanozima4@gmail.com

СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ТРАНСФОРМАЦИИ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье, по мнению миграционного движения страны, процесс международной трудовой миграции осуществляется на основе сотрудничества государств и личной инициативы мигрантов. В результате ускорения процесса трудовой миграции показано, что Узбекистан занимает место активного участника процесса международной трудовой миграции и международного рынка труда. Также научно анализируется текущая ситуация и тенденции миграционных движений в стране во всех аспектах, при этом особое внимание уделяется вопросам правового регулирования. В статье представлены выводы, полученные в

результате сравнительного анализа авторского социологических исследований и официальных данных.

Ключевые слова: трудовая миграция, тенденция, международный рынок труда, страна, заработная плата, уровень жизни, потребность.

Imomova Nozimakhon,
Fergana State University
Associate Professor, Department of Sociology
Doctor of Philosophy in Sociology (PhD)
e-mail: imomovanozima4@gmail.com

SOCIAL FACTORS OF THE EMERGENCE AND TRANSFORMATION OF LABOR MIGRATION

ABSTRACT

In this article, according to the country's migration movement, the process of international labor migration is carried out on the basis of cooperation between states and the personal initiative of migrants. As a result of accelerating the process of labor migration, it is shown that Uzbekistan takes the place of an active participant in the process of international labor migration and the international labor market. The current situation and trends of migration movements in the country in all aspects are also scientifically analyzed, with special attention paid to issues of legal regulation. The article presents the conclusions obtained as a result of a comparative analysis of the author's sociological research and official data.

Key words: labor migration, trend, international labor market, country, wages, standard of living, need.

KIRISH

Xorijiy davlatlardagi mehnat muhojirlarining o'z yurtlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, hamda ular ishlayotgan mamlakatlar taraqqiyotiga sezilarli darajada hissa qo'shishi, hamisha davlat va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik bardavom ekanligidan darak beradi. Shu o'rinda jamiyat va davlat munosabatlariga ta'rif va transformatsiya jarayoni haqidagi ma'lumotga to'xtalamiz. Dunyodagi barcha davlatlarni birdek transformatsiya hodisasi qamrab olgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Mehnat migratsiyasining ijtimoiy transformatsiyasi muhim vazifalarni bajaradi. Ijobiy ta'siri insoniyat taraqqiyotiga olib keladi, turli mamlakatlar o'rtasida yangi bilim, tajriba va malaka almashinuviga ko'maklashishi bilan birga, mamlakat iqtisodiyotini o'sishiga olib keladi. Migrantlarni qabul qiluvchi mamlakatning mehnat bozorida malakali mutaxassis va arzon ish kuchiga ehtiyojni qoplash bilan birga, mehnat muhojirlarini yetkazuvchi mamlakatda kambag'allikni qisqarishiga yordam beradi.

Shuningdek, jamiyatlarning rivojlanishi va aholining ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlanishida davlat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy barqarorlik, tabiiy resurslar, xalqaro hamkorlik, ishchi kuchi, mehnat taqsimoti kabi ichki omillar orqali transformatsiyaning paydo bo'lishi ham tezlashadi. Mamlakatning sanoatlashtirish, agrar sektor va ishchi kuchidagi ichki bozorlarning hajmi, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik holati va milliy o'ziga hos iqtisodiy tuzilmalar davlatning transformatsiya jarayonlariga ta'sir etadigan muhim omillardan hisoblanadi. Bu esa aholining iqtisodiy hayoti rivojiga, xalqlar turmush sharoitining yaxshilanishiga va ijtimoiy jarayonlarga institutsional ta'siri ijobiy natijalarni bermoqda. Shu o'rinda, insoniyatning intellektual salohiyati, ya'ni shaxs kapitalini yuksalishiga ham olib kelmoqda.

METODOLOGIYA

Mehnat migratsiyasi jarayonlarni o'rganishda uning o'ziga hos xususiyatlari va turlariga alohida e'tibor berish talab etiladi. Tadqiqotchi olimlardan A.Smit XVIII asrda migratsiya to'g'risida o'zining "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari" ("An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations") [1,2] asarida mehnat bozoridagi mutanosiblik va tengsizlik oqibati migratsiya jarayoni shakllanishiga sabab deb ko'rsatgan.

Adam Smitning bu boradagi fikri, “Hamma odamlarda, – bitta xohish, istak mavjud, ya’ni o‘z yashash sharoitlarini va turmush tarzini yaxshilash kabi orzusi insonlarda hech qachon yo‘qolmaydigan istak bo‘lib qolaveradi” [3,4] deydi.

Demak, olimni fikrini tasdiqlagan holda, mehnat migratsiyasini shakillanishidagi asosiy omillardan biri insonlar o‘z turmush darajasini yaxshilash, o‘zlari orzu qilgan sharoitlarni yaratish, eng kerakli ehtiyojlarini qondirish kabi istaklari ortidan yuqori daromatga intilib boshqa mamlakatlarga ko‘chib ketadilar. Shu o‘rinda A.Smit aytgan ushbu fikrini keltiramiz, “... agar inson o‘z foydasini ko‘zlab faoliyat yuritsa ham, beixtiyor ravishda jamiyat manfaati va aholi farovonligi uchun xizmat qila boshlaydi” [5,6]. Bizningcha ham, mehnat migrantlari potentsiali cheklangan hududni tark etib, muvaffaqiyatlarga erishish darajasi yuqori bo‘lgan mintaqalarga ko‘chib o‘tishi migrantlarning ijtimoiy, iqtisodiy holatini yaxshilanishi va inson kapitaliga ega bo‘lishi bilan birga mehnat faoliyatini institutsionallashtirishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda Belarus olimi A.Fedorako mehnat migratsiyasini iqtisod bilan bog‘laydi. Unda mehnat muhojiri o‘z mehnatini o‘sha mamlakatga sotadi, o‘zlari esa, ya’ni migrantlar mamlakatning tovarlarini sotib oladi [7]. Demak, mehnat migratsiyasining ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonini quyidagicha turlarga ajratib, tahlil qilish mumkin:

Hududiy chegaralar mezoniga ko‘ra mehnat migratsiyasi ikkiga ajratiladi, davlat tashqarisida (tashqi) va mamlakat ichkarisidagi (ichki) migratsiya ko‘rinishida amalga oshiriladi. Shuningdek, vaqtinchalik ichki mehnat migratsiyasi bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlari uchun obyektiv haqiqatga aylandi. Jahonda yangi davrning o‘ziga xos xususiyati sifatida yangi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan bog‘liq. O‘zbekistonda ham aholi orasida o‘zga davlatdan ish izlayotgan mehnat migrantlari ko‘lami katta miqdorni tashkil qiladi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, vaqtinchalik mehnat qilayotgan muhojirlar hozirda qariyb 300 ming kishini tashkil etadi [8].

Respublikamizda olib borilayotgan bir qator islohotlar natijasi sifatida davlatimiz fuqarolariga keng imkoniyatlar berilishi mehnat migratsiyasini (ichki va tashqi) keng ko‘lamda ortib borishiga imkon berdi. Migrantlar orqali davlatda iqtisodiy rivojlanish, ya’ni pul aylanma, investitsiya kirib kelishi, turli hil innovatsiyalarni shakillanishi, zamonaviy uskunalar va ulardan to‘g‘ri foydalanishga erishildi. Bularning barchasi oilaviy tadbirkorlik rakursiga ta’sir etib, inson intellekti va salohiyatini yuksaltirdi. Shuningdek, ishlab chiqarish salmog‘ini ortishi oilalarni daromadi ko‘tarilishining ijtimoiy transformatsiyasi sezilarli darajada aholini sarmoyador qatlamlari sonini ortib borishiga sabab bo‘ldi.

ASOSIY QISM

Mehnat migratsiyasi va ishchi kuchi mobilligi, shu jumladan qochoqlar oqimi murakkabligi jihatdan hozirgi davrning global hodisasiga aylandi. Ko‘plab mamlakatlarda mehnat bozorining tartibsiz shakillanishi va boshqaruv tizimining zaifligi tufayli mamlakatda noqonuniy migratsiya, mehnatga layoqatli aholidan unumli foydalanmaslik, mavjud bo‘sh ish o‘rinlariga mutaxassislik diplomlarni va malakalarni mos kelmasligi, diskriminatsiya, ishga qabul qilishdagi tengsizlik hamda ekspluatatsiyaning kuchaytirilishiga olib kelmoqda. Bu esa mamlakatda mehnat migratsiyasini noqonuniy shakillanishiga sabab bo‘lmoqda.

Bunday holatlarning mavjudligi ham donor va ratsipient mamlakatlarda o‘z vaqtida to‘g‘ri tartibga solinmasa, mehnat migrantlari va ularning oila a’zolari uchun munosib ish taqchilligi, shu o‘rinda muhojirlarning boradigan mamlakatlarida uzoq muddatli salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu o‘rinda, ishchi kuchini qabul qiluvchi va yetkazib beruvchi davlatlar o‘rtasidagi mintaqaviy, siyosiy ikki tomonlama hamkorligi mehnat migratsiyasidan foyda olish ehtimolini ortiradi.

Jamiyat – insonlarning oila, guruhlar o‘rtasidagi muommolar, ijtimoiy aloqalarning mustahkamligi tizimi hisoblanadi. Davlat tashkil etilishidagi muhim jihatlardan biri, jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lib, davlat [9] – esa jamiyatning yagonaligi va yaxlitligini ta’minlaydigan siyosiy tashkilot sifatida va maxsus mexanizm asosida jamiyatga oid jarayonlarni boshqaruvchi hokimiyat sanaladi. Shuningdek, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, qonuniylik va huquqiy tartibotni kafolatlaydigan ishonchli boshqaruv tizimi hamdir. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy transformatsiyalashuv aholi turmush sharoitini yaxshilanishi,

inson kapitalini yuksalishi shaxslar sivilizatsiyalashuvi kabi xususiyatlarni taraqqiy etishi bilan izoxlanadi.

Transformatsiya [10] soʻzi lotin tilidan “transfor” va “matio” soʻzlaridan olingan boʻlib, “oʻzgarish” va “oldinga” degan maʼnolarni anglatadi. Asosan uning xususiyati jamiyat va davlat oʻzgarishi bilan bogʻliq jarayonlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Transformatsion jarayonlar davlatning barcha sohalarida bir holatdan ikkinchi holatga oʻzgarishi yoki almashishi boʻlib, unda davlat va jamiyat (aholi) hayotida ijtimoiy voqelik va zaruriy ehtiyoj asosida vujudga kelgan jarayonlarni sezilarli darajada oʻzgartiradi. Demak, transformatsiya – davlatning fundamental oʻzgarishidir [11].

Migrantlarning vataniga, yaʼni oʻz oila aʼzolari, yaqinlariga yuboradigan pul oʻtkazmalari, chet elga qaytib ketgan migrantlar jamgʻarmasidan olinadigan investitsiyalar va ular oʻz vatanlariga olib kirgan texnologiyalar mamlakatga katta iqtisodiy manfaat keltiradi. Jumladan, 2020-yilda XMT maʼlumotlariga [12] koʻra dunyo boʻyicha mamlakat yalpi ichki mahsulotida pul oʻtkazmalarining eng yuqori boʻlgan birinchi beshtalikka kiruvchi davlat aniqlandi. Bular: Tonga – 37,7 %, Livan – 32,9 %, Gaiti – 30,7 foiz, Shimoliy Sudan – 29,5 %, Qirgʻiziston – 29,4 %, Nepal – 28%, Tojikiston – 27,2% ni tashkil qildi. Yuqori oʻrin egallagan mamlakatning ikkitasi Oʻzbekiston bilan chegaradosh davlat hisoblanadi.

Shuningdek, mehnat migratsiyasi ishchi kuchini yoshartirishga, qishloq xoʻjaligi, qurilish va shaxsiy xizmatlar kabi mehnat talab qiladigan sohalarni qoʻllab-quvvatlashga, tadbirkorlikni ragʻbatlantirishga, ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlarini qoʻllab-quvvatlashga va ishchi kuchiga boʻlgan ehtiyojni qondirishga yordam beradi.

Mehnat migratsiyasi boʻyicha soʻnggi oʻn yilliklarda Oʻzbekiston tugʻilish soni boʻyicha jadal oʻsib borayotgan mamlakatlardan sanalib, MDH davlatlari orasida 3-oʻrinni, dunyoda esa 40-oʻrinni egallamoqda. 2023-yil holatiga koʻra, mamlakat aholisi 36,024 [13] million kishini tashkil etdi. BMT ning pragnoziga koʻra, Oʻzbekiston aholisi 2030-yilga borib 37,5 million kishi, 2050-yilda esa 43,2 milliondan ortiq aholiga ega boʻlishi mumkin [14]. (1991-yilda 20,61 million kishini tashkil qilgan). Oʻtgan yillar davomida Oʻzbekiston aholisi 12,08 milliondan 35,3 million kishigacha ortdi (2021-yil boshida) yaʼni aholi soni 2,9 barobar ortganini koʻrishimiz mumkin. Mamlakatda aholi sonini oʻsishi mehnat migratsiyasi harakatini ortib borishiga sabab boʻldi. Mehnat migrantlari donor va ratsipient mamlakatlar uchun mamlakat iqtisodiyoti oʻsishi va rivojlanishiga ulkan hissa qoʻshsada, migratsiya jarayonini boshqarishda uchraydigan murakkab muommolarni hal etish, mehnat muhojirlarini himoya qilish va xalqaro hamkorlik aloqalarni rivojlantirish kabi masalalarni hal etishni talab etadi. Barcha mamlakatlarda migratsiya jarayonlarini tartibga solish maqsadida xalqaro darajada migratsiya xizmatlari koʻrsatish zarurati Xalqaro migratsiya tashkilotiga asos soldi.

XMT Konstitutsiyasida nazarda tutgan maqsad va vazifalar asosan mehnat muhojirlari huquqlarini himoya qilishni hamda mehnat migratsiyasini adolatli boshqarish, mehnat migrantlari toʻgʻrisidagi Konvensiya da aks etadi [15]. Konvensiyada koʻrsatilgan adolatli migratsiya dasturida quyidagi vazifalar belgilangan:

- kelib chiqish mamlakatlarida munosib ish imkoniyatlarini yaratish orqali mehnat migratsiyasini zarurat emas, balki, tanlov masalasiga aylantirish;
- inson huquqlariga, shu jumladan, barcha migrantlarning ishlash huquqiga rioya etilishini taʼminlash;
- mehnat muhojirlarini ekspluatatsiya qilishdan qochish, qabul qilinadigan mamlakat fuqarolari bilan teng huquqli boʻlishlari uchun adolatli ish sharoitlarini taʼminlash va ularga nisbatan teng huquqlilikni taʼminlash;
- mintaqaviy integratsiya jarayonida migratsiyaning adolatli tartibini oʻrnatish;
- aʼzo davlatlar oʻrtasida tartibli va adolatli migratsiya boʻyicha ikki tomonlama kelishuvlar qabul qilishiga koʻmaklashish;
- ishdagi asosiy prinsiplar va huquqlarga umumiy hurmatni shakllantirish orqali umuminsoniy tamoyillar boʻyicha qabul qilinmaydigan amaliyotga qarshi kurashish;
- mehnat vazirliklari, kasaba uyushmalari va ish beruvchi tashkilotlarni migratsiya sohasida qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb qilish orqali ijtimoiy muloqotni rivojlantirish;

– xalqaro huquqlarga asoslangan ko‘p tomonlama migratsiya kun tartibini shakllantirishga hissa qo‘shish.

XMT belgilagan vazifalari mehnat bozorida barcha malakali ishchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda adolatli migratsiya dasturi bo‘yicha umumiy pozitsiyani ishlab chiqish orqali – mehnat vazirliklari, ish beruvchilar, ishchilar tashkilotlari va fuqarolik jamiyatini birlashishiga asos bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, 2018-2020-yillarda Xalqaro mehnat tashkilotining O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarini amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hukumat qarori qabul qilinganligi O‘zbekiston hukumati migratsiya jarayonini boshqarish bo‘yicha uning migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkiloti ishlab chiqqan va Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan umume‘tirof etilgan konsepsiyalarga tayanib faoliyat olib borishidan dalolat beradi.

Shuningdek, mehnat migratsiyasi jarayonini vujudga kelishi va transformatsiyalashuvining ijtimoiy omillariga ta‘sir etuvchi turli jihatlari, ya‘ni harakatlantiruvchi hamda cheklovchi omillarini, shu jumladan mehnat taqsimotini O‘zbekiston sharoitida tizimlashtirish, ko‘plab muammolarni hal etishda bilim, tajriba va imkoniyatlarning muhim yo‘nalishlarini aniqlash uni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Mehnat migratsiyasining yuqoridagi tasnifidan kelib chiqib, mehnat migratsiyasining ijtimoiy transformatsiyalashuv omiliga alohida e‘tibor qaratdik. Aynan, bizning tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra, mehnat migratsiyasi vujudga kelishining va ijtimoiy transformatsiyalashuv omillarining salbiy hamda ijobiy tomonlarini, shuningdek, migratsiyaning turlari va ularni shakllantiruvchi omillarning ilmiy tahlil qilishga qaratdik.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) xalqaro mehnat migratsiyasi subyektlarining beshta turini aniqlaydi:

- doimiy yashash uchun ketgan migranlar;
- shartnoma asosida ishlaydigan migrantlar;
- yuqori malakali mutaxassis migrantlar;
- noqonuniy mehnat muhojirlari;
- majburiy tarzda ketgan migrantlar hisoblanadi.

Demak, doimiy yashash uchun mamlakatni tark etgan migrantlar asosan boshqa davlatning iqtisodiyoti rivojlangan va turmush darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatni tanlaydi. Shu o‘rinda, migrantlar doimiy yashash va ishlash joyini muqim qilish bilan birga, eski joyini butunlay tark etadi, ya‘ni boshqa davlatga yoki qishloqdan shaharga ko‘chib kelishi bilan belgilanadi. Mehnat migratsiyasini keyingi shakli shartnoma asosida ishlaydigan muhojirlar sanalib, bular, mamlakatda ma‘lum bir muddat yashash huquqiga ega hisoblanadilar. Bu turdagi emigrantlarni malakasiz yoki malakasi past ishchilar tashkil qiladi. Bunday ishchilar o‘zlarini tabiiy sharoitidan kelib chiqib quyidagicha turlanadi:

- mavsumiy ishchilar;
- vaqtincha ishlaydiganlar (loyihada ishlovchilar);
- shartnoma asosida ishlaydiganlar;
- aniq bir kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi (belgilangan muddatda) ishlovchilar;
- mamlakat fuqaroligini olish imkoniyatiga ega ishchilar;
- yuqori malakaga ega ishchilar (xunarmand).

Navbatdagi mehnat migrantlari – oliy ma‘lumotga ega mutaxassislardan tashkil topadi. Masalan, jahon universitetlaridan boshqa oliygohga ko‘chib yuruvchi talabalar. Shu o‘rinda:

➤ Akademik harakatchanlikni ham misol qilishimiz mumkin. Unda olimlarning xalqaro harakatlari va oliy ma‘lumotli o‘qituvchilarning ilmiy va pedagogik tajriba almashishi, shuningdek, boshqa professional maqsadlar tufayli migratsiya.

➤ Mehnat migratsiyasida noqonuniy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar navbatdagi shaklini egallaydi.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000